


#### IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

Joriy davrda 9 053,6 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘shish sur‘ati 2023- yilning yanvar-martiga nisbatan 2,3 marta o‘ydi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 850,1 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 9,4 foiz va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 2,9 marta o‘zlashtirildi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 8 203,5 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 90,6 foiz va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 2,2 marta o‘zlashtirildi.




Asosiy kapitalga investitsiyalar- yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning statistik hisobi, qo‘shimcha qiymat solig‘ini qo‘shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda, to‘lov amalga oshirilgan paytdan qat’iy nazar, haqiqatda o‘zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.


So‘nggi 5 yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, u deyarli 2,3 martaga ko‘payib, o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda.

### Asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmi dinamikasi, mlrd . so‘m



So‘ngi yillardagi ularning o‘shish sur‘atlarini ko‘radigan bo‘lsak, 2021- yilda eng past o‘shish sur‘ati qayd etilganini va 69,9 % qayt etilgan, shundan so‘ng 2022-yillarda yana o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib joriy davrda esa eng yuqori ko‘rsatkich 2,3 marta o‘shish qayd etilganini ko‘rishimiz mumkin.

### Asosiy kapitalga investitsiyalar o‘shish sur‘atlari dinamikasi, % da



Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 1,8 punktga ko‘payib, 9,4 % ni yoki 850,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 8 203,5 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalarning 90,6 foizi o‘zlashtirilib, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 1,8 punktga ko‘paydi







## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (2024- yil yanvar-mart)

	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, % da	hajmga nisbatan, % da
<b>Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar</b>	<b>9 053,6</b>	<b>2,3 m.</b>	<b>100,0</b>
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>850,1</b>	<b>2,9 m.</b>	<b>9,4</b>
Budjet mablag'idan	43,9	22,9	0,5
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	-	-	-
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan chet el kreditlari	806,2	8,4 m.	8,9
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	-	-	-
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>8 203,5</b>	<b>2,2 m.</b>	<b>90,6</b>
Korxona o'z mablag'lari	867,5	69,8	9,6
aholi mablag'lari	427,4	91,1	4,7
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	6 797,5	3,7 m.	75,1
tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	111,1	78,8	1,2


### Markazlashgan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da (2024- yil yanvar- mart)



**Markazlashmagan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da**  
(2024- yil yanvar- mart)



**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**  
(jami hajmdagi ulushi, % da)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning eng yuqori ko'rsatkichi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 3,7 martaga oshgan.




### Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

Hududlar	Jami		shu jumladan: xorijiy investitsiya va kreditlar	
	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, % da	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, % da
➤ Viloyat bo'yicha	9 053,6	2,3 m.	6 797,5	3,7 m.
shaharlar:				
➤ Navoiy	2 090,1	2,7 m.	1 899,8	6,0 m.
➤ Zarafshon	354,3	75,7	216,8	170,2
➤ G'ozg'on	39,6	127,0	31,2	146,7
tumanlar:				
➤ Karmana	1 628,8	3,4 m.	684,5	28,4 m.
➤ Konimex	383,4	2,8 m.	96,7	
➤ Qiziltepa	248,0	91,4	67,4	12,1 m.
➤ Navbahor	164,8	96,2	89,1	5,6 m.
➤ Nurota	334,3	57,0	257,8	72,1
➤ Tomdi	3 279,5	4,5 m.	3 142,7	4,6 m.
➤ Uchquduq	359,1	3,3 m.	304,7	11,1 m.
➤ Xatirchi	171,7	73,7	6,8	248,3 m.

### Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlari, % da



### Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % da







### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	Jami	Shu jumladan, mulkchilik shakllari bo'yicha	
		davlat	nodavlat
<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>9 053,6</b>	<b>389,1</b>	<b>8 664,5</b>
<i>shu jumladan:</i> umumiy hajmga nisbatan, % da	100,0	4,3	95,7
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari	4 861,4	311,9	4 549,5
qurilish-montaj ishlari	3 418,9	66,8	3 352,1
boshqa harajatlar	773,3	10,4	762,9

### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, mlrd. so'm



### Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, % da




- Yangi qurilish
- Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qurollantirish
- Boshqalar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida Navoiy viloyati bo'yicha mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari ulushi- 53,7 foiz, qurilish-montaj ishlari-37,8 foiz hamda boshqa xarajatlar- 8,5 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilishi: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 298,0 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 3,3 %), tog'- kon sanoatida 1 244,9 mlrd. so'm (13,8 %), qayta ishlash sanoati jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 4 749,7 mlrd. so'm (52,5 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 1 877,4 mlrd. so'm (20,7 %), qurilish sohasida 203,1 mlrd. so'm (2,2 %), ulgurji va chakana savdo sohasida 131,8 mlrd. so'm (1,5%), Professional, ilmiy va texnik faoliyat 10,1 ( 0,1 %), tashish va saqlash 42,8 mlrd. so'm (0,5 %) Sog'liqni saqlash 23,6 mlrd. so'm (0,3%), hamda boshqa faoliyat turlari bo'yicha 472,2 mlrd. so'm (5,1 %) ni tashkil etdi.




### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi (umumiy hajmga nisbatan, % da)




2024- yilning yanvar-mart oylarida jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi, ya'ni 77,3 foizi Viloyatning uch hududida, jumladan Tomdi tumanida – 36,2 %, Navoiy shahrida – 23,1 % va Karmana tumanida –18,0 % investitsiyalar o'zlashtirildi.

### Hududlarda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar (jamiga nisbatan % da)



### Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy kapitalga investitsiyalar



### IJTIMOIIY SOHA OBYEKTLARINING QURILISHI

#### 2024- yil yanvar-mart

2024- yilning yanvar-mart oylarida umumiy maydoni 111,6 ming kv.m (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 71,0 %) bo'lgan 361 ta turar joylar, jumladan 98,3 ming kv.m. (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 75,0 %) bo'lgan 317 ta turar joylar qishloq joylarda ishga tushirildi.


#### Turar-joylarni ishga tushirish

	Xonadonlar soni, birlik	Maydoni, ming kv.m
<b>Viloyat bo'yicha jami:</b>	<b>361</b>	<b>111,6</b>
<i>shaharlar</i>		
Navoiy	10	2,9
Zarafshon	14	4,2
G'ozg'on	-	-
<i>tumanlarlar</i>		
Konimex	3	0,9
Qiziltepa	76	22,7
Navbahor	44	13,9
Karmana	78	24,2
Nurota	50	15,8
Tomdi	2	0,4
Uchquduq	3	0,9
Xatirchi	81	25,7




## Bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-mart oylari)

Joriy yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyatida jami 1 369,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 111,6 foizni tashkil etdi.



### 2024- yil yanvar-mart oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi




Joriy yilning yanvar- mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 326,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan 155,5 foiz, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 23,8 foizni tashkil etdi.




### Qurilish ishlari hajmining tarkibi va ulushi (2024- yil yanvar- mart oylari)

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha




### Qurilish ishlari hajmida yirik tashkilotlar ulushi, % da



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.




### Bajarilgan qurilish ishlari hajmida yirik tashkilotlarning ulushi va o'sish sur'ati, % da






## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2024-yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 47,5 foizi to'g'ri kelib, 2024-yil yanvar-mart oylari ko'rsatkichi 3,9 punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yil yanvar-martga nisbatan 105,6 foizni tashkil etgan holda 649,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 150,7 mlrd. so'm yoki 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 136,5 foiz qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 1 218,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 109,1 foizni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da




### Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari (2024- yil yanvar-mart oylari)

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Nodavlat mulk		Davlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi, % da	mlrd. so'm	ulushi, % da
<b>Jami</b>	<b>1 369,1</b>	<b>1 218,4</b>	<b>100,0</b>	<b>150,7</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	219,7	199,4	16,3	20,3	13,5
Zarafshon sh.	194,1	163,1	13,4	31,0	20,5
G'azg'on sh.	1,5	1,5	0,1	-	-
Karmana t.	130,0	120,0	9,8	10,0	6,6
Konimex t.	28,2	24,2	2,0	4,0	2,7
Qiziltepa t.	290,0	279,1	22,9	10,9	7,2
Navbahor t.	102,2	92,0	7,6	10,2	6,8
Nurota t.	176,5	157,1	12,9	19,4	12,9
Tomdi t.	74,8	43,6	3,6	31,2	20,7
Uchquduq t.	33,1	29,9	2,5	3,2	2,1
Xatirchi t.	119,0	108,5	8,9	10,5	7,0



## Navoiy viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

### 2024- yil yanvar-mart



### 2023- yil yanvar-mart



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 19,5 foiz tashkil etib, 2023-yilning yanvar-mart oylari ko'rsatkichiga nisbatan 1,3 foiz punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023-yilning yanvar-mart oylari ko'rsatkichiga nisbatan 15,7 foiz punktga kamayib, 42,4 foizni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023-yilning yanvar-mart oylari ko'rsatkichiga nisbatan 14,4 foiz punktga ko'payib, 38,1 foizni tashkil etdi.




## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 45,0 foizni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan 25,6 foiz punktga ko'paydi.




Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 55,0 foiz ( 25,6 foiz punktga ko‘paydi).




### Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 10,3 foiz punktga kamaydi va 0,8 foizni tashkil etdi. Qolgan 99,2 foizi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 10,3 foiz punktga ko‘paydi.




Hududlar kesimida eng yuqori hajm Qiziltepa tumaniga (290,0 mlrd. so‘m), Navoiy shahriga (219,7 mlrd. so‘m), Zarafshon shahriga (194,1 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

### Eng yuqori hajm (mlrd. so‘m)



Hududlar kesimida eng kam hajm G‘ozg‘on shahriga (1,5 mlrd. so‘m), Konimex tumaniga (28,2 mlrd. so‘m) Uchquduq tumaniga (33,1 mlrd. so‘m), to‘g‘ri keldi.





## 2024- yilning yanvar-mart oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari hajmi

2024- yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Qiziltepa tumani (290,0 mlrd. so'm), Navoiy shahri (219,7 mlrd. so'm), Zarafshon shahri (194,1 mlrd. so'm) va Nurota tumani (176,5 mlrd. so'm) qayd etildi.

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish, mlrd. so'm
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 369,1</b>	<b>111,6</b>	<b>1 046,4</b>
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	219,7	108,1	183,7
Zarafshon	194,1	108,9	159,8
G'ozg'on	1,5	102,2	1,0
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	28,2	114,4	10,5
Qiziltepa	290,0	114,9	248,0
Navbahor	102,2	120,7	62,7
Karmana	130,0	109,5	87,2
Nurota	176,5	105,6	139,6
Tomdi	74,8	119,3	58,7
Uchquduq	33,1	128,7	12,5
Xatirchi	119,0	109,8	82,7



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.